

## KORRUPSIYA TARAQQIYOT KUSHANDASI

<sup>1</sup>Jalolova Yulduz Muhiddin qizi,

<sup>2</sup>Amrullayeva Havasgul Amrulla qizi,

<sup>3</sup>Oxunova Sohiba G'ofur qizi,

<sup>4</sup>Ernazarov Sanjar Nurali o'g'li

<sup>1</sup>Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pedagogika va psixologiya fakulteti tyutori,

<sup>2</sup>Jizzax shahar 16-maktab o'qituvchisi,

<sup>3</sup>Sh.Rashidov tumani 12-maktab o'qituvchisi,

<sup>4</sup>Pedagogika va psixologiya fakulteti

Surdopedagogika yo'nalishi II-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7294370>

**Annotatsiya:** Bugungi kunda korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Korrupsiya so'nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir. Ushbu maqolada korrupsiya haqida gaplashamiz.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya illati, jinoiy javobgarlik, davlat siyosati, strategiya, davra suhbatlari.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, insoniyat shakllanish jarayonining ilk davri bo'lmish ibtidoiy jamiyatlarda ham korrupsiyaning ayrim ko'rinishlari bo'lib, o'sha davrda qabila oqsoqoliga yoki harbiy boshliqlarga muayyan bir imtiyozni egallash uchun haq to'lash tabiiy hol hisoblangan. Keyinchalik esa davlat boshqaruvining takomillashuvi va murakkablashuviga ko'ra, korrupsiyaning ham turli xil shakllari yuzaga kelib, oxir- oqibatda u global muammolardan biriga aylanib ulgurdi. Bilamizki, shaxs, jamiyat hamda davlat tushunchalari o'zaro chambarchas bog'liq. Shu sababli jamiyatning biron a'zosiga ta'sir qilgan biror illat, albatta, butun jamiyatga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Korrupsiya paydo bo'lishi va rivoji mazkur mamlakatning taraqqiyotiga zimdan to'sqinlik qiladi hamda davlatning olib borayotgan islohotlariga qarshilik ko'rsatadi. Korrupsiya illatiga qul bo'lgan amaldorlar davlatning, jamiyatning, xalqning bildirgan ishonchini suiste'mol qilib, o'z manfaatlarini xalq va davlat manfaatlaridan ustun qo'yadilar. Bu esa davlar siyosatining o'sha amaldorlar boshqarayotgan bo'g'inida ish sifatining buzilishiga olib keladi. Natijada butun bir jamiyat zarar ko'radi. Korrupsiya davlatni nafaqat moddiy, balki ma'naviy-ahloqiy jihatdan ham yemirib, xalq va davlat o'rtasida ishonchsizlik deya atalmish ulkan chegaraning vujudga kelishiga olib keladi. Bu esa xalq o'rtasida Vatanga daxldorlik va kelajakka ishonch tuyg'ularining so'nishiga olib keladi. O'z mansab yoki xizmat mavqeini suiste'mol qilish, undan shaxsiy yoki o'zgarlar manfaatlarini ko'zlab moddiy

yoxud nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanish jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Anglaganingizdek, gap korrupsiya haqida ketmoqda. Bugun jamiyatimizda ushbu illatga qarshi jiddiy kurashilyapti, uning oqibatlarini ommaviy axborot vositalari orqali, turli uchrashuvlar, davra suhbatlari, tadbirlarda aholiga tushuntirilishiga qaramay, afsuski, korrupsiyaning keskin kamayishiga erishganimiz yo'q. Nega korrupsiya degan balodan qutulolmayapmiz? Bunga nima to'sqinlik qilmoqda?

Bilamizki, korrupsiyada har doim kamida ikki tomon ishtirok etadi. Bunda, bir tomondan, noqonuniy yo'l bilan o'zi yoki uchinchi shaxs uchun boylik orttirayotgan mansabdor shaxs hamda boshqa tomondan mansabdor shaxsdan aktiv yoxud passiv usulda uning manfaatini ko'zlovchi qarorning qabul qilinishini kutayotgan shaxs. Korrupsiyani, soddaroq qilib, o'z nafsini, manfaati yo'lida qonunni ham chetlab o'tish orqali g'arazli maqsadi hamda biror narsaga erishish, deyish mumkin. Bugungi kunda yurtimizda ushbu illatga qarshi kurashish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Uning huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmasi va amalga oshirish strategiyasi ham aniq. Bu borada O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qo'shilishi islohotlarning dastlabki muhim qadami bo'ldi. Uni amalga oshirishning milliy mexanizmi sifatida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun, Prezidentimizning "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Bularning samarali ijrosi natijasida ko'plab jinoyatlar fosh etilmoqda, sodir qilinishi xavfi bo'lganlarining oldi olinmoqda. Buni har kuni ommaviy axborot vositalari orqali kuzatib boryapmiz. Bu yaxshi, albatta. Lekin shularning o'zigina yetarli emas. Korrupsiyaga qarshi yanada faol kurashishimiz kerak. Mana shu bizning, barchamizning diqqat-e'tiborimizda bo'lishi lozim.

Ta'kidlash lozimki, korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi"

Korrupsiya... Naqadar, naqadar qabih illat. Bugungi kunda butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solib kelayotgan bu illat azaldan jamiyat va davlat ravnaqiga zimdan to'sqinlik qilib kelayotgan eng jirkanch omillardan biridir. Korrupsiya haqida so'z yuritar ekanmiz, bu so'zning lug'aviy ma'nosi barchani birdek o'ylantirsa ajab emas, albatta. Keling, bu borada to'xtalib o'tsak. "Korrupsiya" atamasi lotinchadan olingan bo'lib, "corrumpo" – "poraga sotilish", "aynish" degan ma'nolarni anglatadi. Kengroq ifodalaydigan bo'lsak, mansabdor shaxsning mansabi bo'yicha berilgan huquq va valokatlarni o'z manfaatini ko'zlab, shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiste'mol qilishi bilan bog'liq bo'lgan amaliyotdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Davlat va huquq asoslari
3. Davlat va huquq nazariyasi (Odilqoriyev X.T). Toshkent "Adolat" 2018
4. yuz.uz.